

ISLOMDA FAROIZ ILMINING XUSUSIYATLARI

Shaxnoz Axmedova,

“O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi
“Islomshunoslik” mutaxassisligi magistranti

Dastlab bu ilmga berilgan turli ta’riflarni berishni lozim bildik. Islom dini barcha insonlar uchun qonuniy yo’l bilan, ya’ni shariat belgilagan tartib asosida mulkka egalik qilish huquqini ta’minlab berdi. Xoh u ayol bo’lsin, xoh erkak¹. Umumiy holatda bir inson hayotlik vaqtida egalik qilgan mulkini, u vafot etgach meros egalari to’g’ri taqsimlanishini o’rgatadigan ilmdir².

Bu ilmning “Faroiz” deb nomlanishining sababi quyidagichadir. Faroiz so’zi “farz” so’zining arab tilidagi ko’plik shaklidir. Ya’ni farzlar degan ma’noni beradi. “Farz” so’zi lug’atda “o’lchov” “kesish” va “bayon qilish” ma’nolarini bildiradi. Shariatdagi farz amallar ham o’lchovlik, kesib aytilgan va bayon qilingan amallar bo’lgani tufayli “farz” deb atalgan. Merosning “farz” deb aytilishi esa, unda merosni o’lchash shariat tomonidan kesilgan ish, bayon qilinib, har bir meros-xo’rning haqqi aniq ko’rsatilgani uchundir. Yana merosdan tegadigan ma’lum nasibaga ham “farz” deyiladi³.

Meros deganda o’lgan odamning ortidan qolgan narsani olishga biror kishining qolishi tushuniladi. Fiqhiy tushuncha bo’yicha, mayyitning ortidan shar’iy vorisga qolgan mol va huquqlarga “meros” deyiladi. Meros ilmi esa har bir merosxo’rning qolgan merosdagi mol va huquqlaridan tegadigan nasibasini aniqlab beradigan fiqhiy va hisobiy qoidalardir.

أَلْفَرَائِضُ فِي الْأَصْطِلَاحِ: "هُوَ عِلْمٌ يُعْرِفُ بِهِ مَنْ يَرِثُ وَمَنْ لَا يَرِثُونَ مِقْدَارُ مَا لِكُلِّ وَارِثٍ مِنَ التَّرَكَةِ".

Shariy istilohda “Faroid” merosga loyiq merosxo’rlar va undan mahrum bo’lganlar, shuningdek marhumning mol-mulkidan har bir merosxo’rning meros qilib olingan ulushi miqdorini o’rganish haqidagi fan⁴. “Meros - bu kimning meros olishi va kimga meros qoldirmaganligini va merosxo’rlardan qaysi biri qaysi ulushga ega ekanligini o’rganadigan fan”⁵. Shuningdek, marhum mulkiga egalik qilish huquqi tirik merosxo’rlarga ko’chib o’tishidir. Faroiz yoki meros ilmi

¹ Islom shariatida meros ilmi. Qur’on va sunnat asosida. Shahyx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. - T.:Hilol, 2022. B. 41.

² O’sha asar. B. 41.

³ [Me’ros ilmining ijtimoiy hayotdagi ahamiyati - arroziy](https://ru.wikipedia.org/wiki/Исламское_наследственное_право)

⁴ https://ru.wikipedia.org/wiki/Исламское_наследственное_право

⁵ https://ru.wikipedia.org/wiki/Исламское_наследственное_право



marhum mulkning maxsus shartlari bilan shug'ullanadigan eng muhim islomiy ilmlardan biridir.

Meros fanini o'rganishga undash va uni o'rganish musulmonlarning jamoaviy burchidir. Meros ilmiga Alloh taoloning o'zi asos solgandir. Bu ilmning fazli juda ham ulug'dir. Uni ilmning yarmi deganlar ham bor. Meros ilmining asosiy dalil va hujjatlari Qur'oni karim, sunnat va ijmo'dan olingan. Bu ilmda qiyosga o'rin qolmagan. Imom Ibni Moja Abu Hurayra r.a.dan rivoyat qilgan hadisda Payg'ambarimiz s.a.v:

“Faroizni o'rganinglar va uni odamlarga o'rgatinglar. U ummatimdan eng avval unitiladigan narsadir”, deganlar⁶.

Meros ilmining buyuk sha'ni va shar'iy ilmlar o'rtasida o'ziga xos, alohida o'rni bordir.

Marhum ortidan qolgan moliyaviy yoki moliyaviy bo'lmagan huquqlar ham tarika deyiladi. Marhumning tarikasiga bog'liq bir necha huquqlar bo'lib, ular quyidagi tartibga ko'ra bo'linadi⁷:

- marhumni dafn etish uchun;
- umumiy shaxsiy qarzlarni to'lash uchun;
- marhumning vasiyatlari merosxo'rdan boshqa odamga ta'alluqli bo'lsa, undan qolgan tarikaning uchdan biri doirasida, hech kimning ruxsatiga qaramay bajarish;
- qolgan mulk merosxo'rlar o'rtasida meros sifatida bo'linishidir.

Agar marhumning puli faqat qarzlarni to'lash yoki vasiyatnomani bajarish uchun etarli bo'lsa, birinchi qarzlari to'lanadi.

Merosxo'rning darajalari bir xil emas. Meros ularga quyiagicha taqsimlab beriladi:

1. Farz egalari. Qur'on, hadis yoki ijmo orqali belgilangan ulushi bor kishilardir. Taqsimot aynan farz egalaridan boshlanadi.
2. Nasabiy asabalar. Asaba deb, farz egalaridan qolgan qolgan narsani oladigan, yolg'iz qolganda merosning barchasiga ega bo'ladigan qarindoshlarga aytiladi. Bular – o'g'il, o'g'ilning o'g'li, tug'ishgan aka, amaki va boshqalar. Bular farz egalariga belgilangan ulush taqsimlangandan keyin beriladi.
3. (Er-xotindan tashqari) farz egalariga haqlari miqdoricha rad – qaytadan berish. Agar merosdan biror narsa oshib qolsa-yu, asabalardan hech kim bo'lmasa, molni qaytadan farz egalariga beramiz.

⁶ Ahkomul Mavaris. Muhammad Toho Abul Ulo Xalifa. Al-Qohira. Dar Salam, 2004. B. 3.

⁷ Islom shariatida meros ilmi. Qur'on va sunnat asosida. Shahyx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. - T.:Hilol, 2022. B. 43.



4. Zavul-arhom. Bular marhumning farz egalari va asabalardan tashqari qarindoshlaridir.

5. Er-xotindan biriga radd – qaytadan berish. Ikkisidan biri vafot etib, farz egalari, asabalar va zavul-arhomdan hech kim bo'lmasa, er vafot etgan bo'lsa xotin o'z ulushini oladi va qolganini rad bilan qaytadan oladi. Aksi bo'lganda ham.

6. Sababiy asaba. Bu ozod qilingan erkak yoki ayoldir (hozirgi kunda bunday asabalar).

7. Tarikaning uchdan biridan ortig'i vasiyat qilingan kishi.unga vasiyat qilingan kishidir.

8. Baytulmol. Yuqorida zikr qilingan toifalardan birortasi ham topilmasa, musulmonlar manfaati uchun umumiy xazinaga topshiriladi.

Bandalarini halol luqma yeyishga buyurgan zot, birovning molini zulm ila o'zlashtirishni harom qilgan. Baqara surasida quyidagicha marhamat qiladi:

“Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang.”

Hadisi sharifda halol va harom luqma haqida shunday deyiladi:

No'mon ibn Bashir roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: «Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning shunday deganlarini eshitdim:

«Halol ochiq-oydindir, harom ham ochiq-oydindir. Ular orasida ko'p odamlar bilmaydigan shubhali narsalar bor. Uni insonlardan ko'pi bilishmaydi. Kim shubhali narsalardan saqlansa, dini va sha'ni uchun o'zini pok tutibdi. Kim shubhali narsalarga tushsa, haromga yo'liqibdi. Xuddi qo'riqxonada atrofida cho'ponlik qilib, undan o'tlash uchun o'tib ketay degan cho'ponga o'xshaydi.

Ogoh bo'ling! Albatta, har bir podshohning qo'riqxonasi bordir. Ogoh bo'ling! Albatta, Allohning qo'riqxonasi – harom qilgan narsalaridir. **Ogoh bo'ling! Tanada bir parcha go'sht bor, u sog'lom bo'lsa, butun tana sog'lom bo'ladi. U buzilsa, butun tana buziladi. Ogoh bo'ling! O'sha narsa qalbdir»⁸⁹.** Alloh taolo biz bandalariga meros ilmini O'zim ta'lim berdi. Bas, bizga faqat mol-mulkni xoh moddiy bo'lsin, xoh ma'naviy bo'lsin halol yo'l bilan kasb qilib yeyish qoldi. Hadislarda kelgan rivoytalarga ko'ra, qanchadan qancha buyuk amallar birgina yeyilgan harom luqma sabab qabul bo'lmaganligi keltiriladi.

Ibn Abbos roziyallohu anhu dedilar: **«Qornidagi harom luqma uchun Allohga tavba qilmaguncha Alloh bandani namozini qabul qilmaydi».**

⁸ Islom shariatida meros ilmi. Qur'on va sunnat asosida. Shahyx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. - T.:Hilol, 2022. B. 49.

⁹ Muttafaqun alayh. Tarjimon – Anvar Ahmad.



Ka'b ibn Ujra roziyallohu anhu rivoyat qiladi: «**Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: “Harom bilan sug‘orilgan jasad jannatga kirmaydi”**»¹⁰.

Buyuk sahobiy Abu Dardo roziyallohu anhu sahobalar orasida masjidga hammadan erta kelib, hammadan kech ketishi bilan Rasulullohning nazarlariga tushgan sahoba edi. Payg‘ambarimiz alayhissalom Abu Dardon shu odatlari uchun yaxshi ko‘rar edilar. Ammo xurmo pishgan paytda Abu Dardo masjidga kech kelib, erta ketadigan bo‘lib qolibdilar. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: Ey Abu Dardo, senga nima bo‘lyapti, o‘zgarib qolding? Kech kelib, erta ketadigan bo‘lib qolding? deganlar. Shunda u: Yo Rasulalloh, qo‘shnimni xurmosi pishgan, uning shoxlari hovlimga osilgan. Xurmo pishsa, mevasi mening hovlimga to‘kiladi. Bolalarim qo‘shnimning xurmosini yeb qo‘yishidan qo‘rqaman, shuning uchun har kuni ertalab bomdodga ketishdan avval kechasi to‘kilganlarini to‘plab, qo‘shnimga chiqarib yuboraman. Masjiddan tezroq qaytib borib, yana kunduzi to‘kilganlarini bolalarim yeb qo‘ymasin deb, to‘plab, qo‘shnimga chiqaraman. Uzrim mana shu, degan ekanlar. Shunda hazrati Payg‘ambar alayhissalom xursand bo‘lganlar, Abu Dardoning haqqiga baraka tilab duo qilganlar¹¹.

Xulosa o‘rnida qisqacha qilib shuni aytish mumkinki, meros ilmini qanchalik ko‘p o‘rgansak, luqmaning halolligi targ‘ib, haqlarni ado etishda ilohiy qoniniyatga itoat, rizqda baraka, ilmida esa yuksak rivojlanishga sabab bo‘ladi. Barchamiz bir-birimizni haqqimizga xiyonat qilmagan holda halol hayot kechirsak, yurtimiz tez fursatda ilmiy, maishiy rivojlanishda katta marralarni zabt etadi. Shunday ekan, bu ilm faqat bizning foydamizdir.



¹⁰ Abu Ya‘lo va Tabaroniy rivoyati.

¹¹ [Бақара сураси, 188-оят \(islom.uz\)](http://baqara.surasii.com)